

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**“Tasdiqlayman”
O‘zDK rektori**



2019 yil

“Kelishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
madaniyat vazirligi**



2019 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**5111074– Kasb ta‘limi: cholg‘u ijrochiligi (turlari bo‘yicha):
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

Toshkent – 2019 yil

Dastur O‘zbekiston davlat konservatoriyasi o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2019 yil 31 maydagi 7-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

O‘zDK “Estrada cholg‘u ijrochiligi”
kafedrası, katta o‘qituvchisi
A.Nazaryan
(Ish joyi, lavozimi, ilmiy unvoni, F.I.Sh.)
O‘zDK “Estrada cholg‘u ijrochiligi”
kafedrası mudiri, katta o‘qituvchi
X.I.Nazarov
(Ish joyi, lavozimi, ilmiy unvoni, F.I.Sh.)

Taqrizchilar:

“O‘zbekiston bastakorlari uyushmasi”
raisi, professor R.Abdullayev
(Ish joyi, lavozimi, ilmiy unvoni, F.I.Sh.)
O‘zDK “Estrada cholg‘u ijrochiligi”
kafedrası professori, N. Narxo‘jayev
(Ish joyi, lavozimi, ilmiy unvoni, F.I.Sh.)

Kirish

5111074– Kasb ta’limi: cholg’u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asar ijrosi borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

5111074– Kasb ta’limi: cholg’u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me‘yoriy dasturni o‘zlashtirish ustida ish olib boriladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘zlashtirishlaridan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini o‘zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e‘tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko‘rsatib berishga qaratilishi kerak. Tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya‘ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san‘at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

5111074– Kasb ta’limi: cholg’u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko‘zda tutilgan.

O‘qishga kiruvchi 30 daqiqagacha bo‘lgan vaqt mobaynida ijro dasturini ijro etib berishi, 10 daqiqagacha vaqt mobaynida kollokvium topshirishi talab etiladi.

Abituriyentlar o‘zlarini sohalari bo‘yicha quyidagi bo‘limlardan iborat tanlovli imtihon topshiradi:

1. Cholg‘uda ijro dasturi;
2. Kollokvium.

5111074– Kasb ta’limi: cholg’u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro‘yxat asosida, tayyorlangan dasturni yakka tarzda, jo‘rnavor jo‘rligida yoddan ijro etishadi.

Abituriyent asarlar nota matnini xatosiz, asarning sur‘atini ko‘rsatilgan tezlikda, ijro shtrixlarini to‘g‘ri qo‘llagan holda, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, pozitsiya va applikatorani to‘g‘ri qo‘llagan holda, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to‘liq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalarining

qo‘llanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

KOLLOKVIUM

Kollokviumda quyidagilar aniklanadi:

Abiturentning klassik, estrada, jaz, an’anaviy musiqa sohasidagi bilimlari darajasi; adabiyot va san’at bo‘yicha umumiy eruditsiyasi; davlat mustaqilligidan keyingi davrdagi O‘zbekistonda musiqa san’atining rivojlanishiga doir asosiy xujjatlardan xabardorligi.

Ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. cholg‘uda ijro dasturi

№	Ijro talablari	To‘liq javob uchun ball
1.	Asar nota matnining to‘g‘riligi	10,0
2.	Tovush sifati va uni boshqarish	10,0
3.	Applikaturaning qo‘llanishi	10,0
4.	Sahna madaniyati	10,0
5.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	10,0
6.	Musiqiy ifoda vositalarining to‘g‘ri qo‘llanishi	10,0
7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	10,0
8.	Intonatsiya sofligi	10,0
9.	Asar xususiyatini ochib berilishi	10,0
10.	Sur‘atning to‘g‘ri tanlanishi	10,0

Ijro dasturi bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **100 ball**

1. Kollokvium

№	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	Asarga oid savollar	4,6
2.	Musiqiy cholg‘ular bo‘yicha savollar	4,6
3.	Musiqa adabiyoti bo‘yicha savollar	4,6
4.	Asarning shakl nuqtai nazaridan tahlili	4,6
5.	Puflama va zarbli cholg‘ular ijrochilik san’ati tarixidan	4,6

Kollokvium bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **23 ball**

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: cholg‘uda ijro dasturi – **100 ball**, kollokvium – **23 ball**.

Mazkur ta’lim yo‘nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga qo‘yiladigan maksimal ball – **123 ball**.

5. Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

5111074– Kasb ta'limi: cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda va tartibda 1 akademik soat vaqt davomida ijodiy imtihon topshiradi. Ijodiy imtihon 9⁰⁰ da boshlanadi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi, bo'yicha imtihonni qabul qilib oladi, kollokvium o'tkazadi.

Ixtisoslik fanidan ijodiy imtihonlarda qatnashmagan abituriyentlar keyingi sinovlarga kiritilmaydi.

Appelyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.